

**ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BOLALARNI INKLYUZIV  
TA'LIMGAM QAMRAB OLISHNING SHART-SHAROITLARI**

*Egamberdiyeva Nigora Azizovna*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika"*

*kafedrasi o'qituvchisi*

*[nigoraazizovna1991@gmail.com](mailto:nigoraazizovna1991@gmail.com)*

*Sunnatullayeva Marjona G'ayratovna*

*CHDPU pedagogika fakulteti maxsus*

*pedagogika: logopediya yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

*[sunatillayevamarjona@gmail.com](mailto:sunatillayevamarjona@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb qilishning huquqiy-normativ hujjatlari, shart-sharoitlari va shu bilan birga mamlakatimizdagi mazkur ta'lim tizimi borasidagi istiqbolli rejalari haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv, UNICEF, korreksion ish, psixolo-pedagogika, integratsiya, kompetatsiya, YUNESKO.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus yoki oliy ta'lim tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim oladi, deb belgilab qo'yilgan.

UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim tizimi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniylarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Juda ko'p davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarini rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni

to'raligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritilgan.

Ta'lim tizimi shunday bo'lishi kerakki, deb yozadi L.S.Vigotskiy – “nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi. Buning uchun esa shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin”. Ya'ni L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini yaratishni e'tirof etgan. Ushbu maqsad esa inklyuziv ta'lim tizimida amalga oshiriladi.

2003-yilda Respublikamizda “Ta'lim hamma uchun” milliy dasturi ishlab chiqildi. “Ta'lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YUNESKOning maslahatlari va ko'magi bilan 2000-yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan.

Inklyuziv ta'lim g'oyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, mat'buot-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari jadal faollashdi. Jumladan, O'zbekistonda umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etish reja qilindi. 2022-2023-o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Oxirgi paytlarda inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinib, ko'pchilik bu tushunchani nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos.

Shunday ekan, prezidentimiz qarori bilan 2025-yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni huddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv yilida viloyatlar shaharlarida va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish, tayanch korreksion sinf ochish reja qilingan.

Hulosa qilib aytish joizki, har bir imkoniyati cheklangan va alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning barchasi o'z haq-huquqlaridan to'laqonli foydalanishlari hukumat tomonidan bir qator qonun hujjatlari bilan kafolatlangan va ushbu bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb qilish hamda ular o'z tengdoshlari bilan teng shart-sharoitlarda ta'lim-tarbiya olishi jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishi, o'z qadr-qimmatini va mavqeiga ega bo'lishining mustahkam garovidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shomaxmudova R.Sh. Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011

2. “Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003
3. “Ta’lim hamma uchun” Dakar deklaratsiyasi-2002
4. “Ta’lim hamma uchun” milliy dasturini joriy qilish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Toshkent-2005
5. N.A.Egamberdiyeva “Ta’lim klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida”. INSON FAROVONLIGINI O‘RGANISHDA FANLARARO YONDASHUV xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. II qism. Toshkent – 2023-yil. 154-158-betlar.
6. N.A.Egamberdiyeva “RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISH”. “RAQAMLI TA’LIMNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ULARNI TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA TADBIQ QILISH YO‘LLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 1-TOM. 2023-yil. 278-282-betlar
7. Sh.X.Kobilova. Inklyuziv ta’lim jarayoniga ilmiy pedagogik yondashuv. Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi 2023-yil, 15-iyun. - B.566-568.